

## TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING MAZMUN VA MOHIYATI

Botirbekova G.A.,  
Sharipova S.B.

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tillar kafedrasи

### ANNOTATSIYA

*Bugungi kunda har bir jahhaga innovatsiya tushunchasi kirib bormoqda. Ta'lim jarayoni ham bundan mustasno emasligi hammaga ma'lum. Shunday ekan, mazkur maqolada innovatsiya, innovatsion texnologiya tushunchasi, mazmun-mohiyati, obyektlari haqidagi ayrim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holda, ularga berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion texnologiya, innovatsion faoliyat, ta'lim jarayoni, ta'lim samaradorligi, ta'lim mazmuni.

### ABSTRACT

*Today, the concept of innovation permeates every aspect. It is well known that the educational process is no exception. Therefore, this article focuses on the definitions given to them, including some information about the concept, content and objects of innovation, innovative technologies.*

**Key words:** innovations, innovative technologies, innovative activity, educational process, education efficiency, education content.

### KIRISH

O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham keng ko'lamli chuqur islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim taraqqiyotini jahon andozalari asosida qayta tashkil etishga kirishildi. Natijada, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", uning mantiqiy davomi bo'lgan boshqa bir qator ta'limga oid davlat mezonlarining qabul qilinishi jamiyatda uzlusiz ta'lim tizimining uzviyligini joriy etish, ta'lim muassasalarini faoliyatini sifat jihatidan yanada takomillashtirish hamda ta'lim jarayonining faol subyekti va obyektlari bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидagi munosabat mohiyatining yangicha mazmun va g'oyaga asoslanishi zarurligini ham ko'rsatib berdi.

Ma'lumki, ta'limning bugungi vazifasi kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarni mustaqil faoliyat olib borishga, axborot oqimidan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan iboratdir.

Ta'lim samaradorligini oshirish va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, shuningdek, o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallabgina qolmay, zamonaviy pedagogik

texnologiyalarni biladigan, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda ulardan foydalanish qoidfalarini o'zlashtirgan o'qituvchi kerak. Chunki, o'quv-tarbiyaviy ishlarda pedagogik innovatsiya va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan mohirona foydalanish hamda barkamol avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashda ular ongida ma'naviy – ma'rifiy fazilatlarni shakllantirish o'qituvchidan ulkan pedagogik mahorat hamda texnikani talab etadi.

Darhaqiqat, biz pedagoglar, zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida kelajak avlodni komil inson qilib tarbiyalashda vijdonan va qalban mehnat qilishimiz, porloq kelajagimiz oldida mas'uliyatli bo'lishimiz kerak. Yunon donishmandi Aflatun aytganidek, "Farzandlarimizning ilm va adabini o'zimizning ilm va adabimiz bilan cheklamaylik, ularni kelgusi zamon uchun tayyorlaylik, chunki ular bizning zamonamizga tegishli emas, ular kelgusi zamon odamlaridir".

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

"Innovatsiya" tushunchasining paydo bo'lganiga ko'p bo'limgan bo'lsada, pedagogik sohaga mustahkam o'mashib oldi va so'nggi yillarda, uning mazmun jixatidan bir-biriga yaqin, bir qancha ta'riflari yuzaga keldi: qandaydir yangilik kiritish yo'li bilan yaxshilash jarayoni; biron yangilik kiritish hatti-harakati; yangi g'oya, metod yoki qurilma; yangi g'oyalarni samaralli qo'llash; faoliyatda yangi aspektlarni tug'diradigan o'zgartirish; amalga oshirilgan ijodiy g'oya; iqtisodiy, texnik, ijtimoiy, pedagogik va boshqa sohalardagi yangi g'oya, kashfiyot bilan bog'liq o'zgartirish, yangiliklar.

"Innovatsiya" tushunchasining sinonimlari qilib "yangilik", "kashfiyot" so'zlarini olish mumkin. Bu so'zlar ma'no jixatidan bir-biridan farq qilsada, hammasi ijodiy faoliyat, kreativlik bilan bog'liq hodisalar hisoblanadi. Shu bilan birga, olimlar fikriga ko'ra kreativlikda yangi g'oyalarni olg'a surish tushunilsa, innovatsiyaning farqli tarafi uni amalga oshirishdir.

Bilamizki, innovatsion texnologiyalar muammosi bilan bir qator iqtidorli olim va pedagoglar shug'ullangan va shug'ullanishmoqda. Ular ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish va olib borish uchun o'qituvchi pedagoglarimizga yordam beradigan turli hil usul va metodlar ustida tadqiqotlar olib borib tavsiyalar berishmoqda.

Innovatsion texnologiyalarning pedagogikadagi asosiy yo'naliш va ob'yektlari quyidagilar: ta'lim va ta'lim muassasalarining rivojlanish strategiyasi va konsepsiyasini ishlab chiqish; ta'lim mazmunini yangilash; ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zgartirish; ta'lim maskanlari va ta'lim tizimini boshqarishni mukammallashtirish; pedagog kadrlar tayyorgarligini va ularning malakasini oshirishni yaxshilash; ta'lim jarayonining yangi modellarini

proyektlash; ta’lim oluvchilarning psixologik va ekologik muxofazasini ta’minlash; ta’limning sog’liqni saqlovchi texnologiyalarning ishlab chiqish; ta’lim va tarbiyaning samaradorligini ta’minlash, ta’lim jarayoni va ta’lim oluvchilar bilimini monitoring qilish; yangi avlod darslik va o’quv qo’llanmalarini ishlab chiqish va xokazo.

O’quv – tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarning to’g’ri joriy etilishi o’qituvchining bu jaroyonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa, o’quvchidan ko’proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Innovatsion faoliyatni tashkil qilishda o’qituvchi quyidagilarni yodda saqlashi lozim. K.D.Ushinskiy fikriga ko’ra, pedagogikada malaka emas, balki malakadan hosil bo’lgan fikr yetkaziladi. “Begona” malakani pedagog “o’zidan o’tkazib”, shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasiga mos o’z metodini ishlab chiqishi lozim.

Innovatsion fikrlar inson va jamiyatning real ta’lim ehtiyojlariga mos, ishonchli va adekvat bo’lishi kerak, ular aniq maqsad, vazifa va texnologiyalarga ko’chgan bo’lishi lozim. Innovatsiya pedagogik jamoa barcha a’zolarining aql va ashyolarini qamrab olishi lozim, innovatsion faoliyat ma’naviy va moddiy rag’batlantirilishi lozim, innovatsion faoliyatning huquqiy ta’minoti muhimdir. Pedagogik faoliyatda nafaqat natija, balki usul, ashyo, unga erishish metodlari ham muhim ahamiyatga egadir.

## XULOSA

Hozirgi kunda sodir bo’layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o’zgartirish va o’zlashtirilgan bilimlarni o’zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o’quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o’qitish usullari – interfaol usullar va innovatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati beqiyosdir.

## REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o’rganish tazimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875-son qarori. – “Ma’rifat” gazetasi, 2012.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.
3. Iliyeva L., Bobojonov B. Chet tilini o’rgatishning zamonaviy texnologiyalari. O’rta maxsus va kasb-xunar ta’limi: uzviylik va uzlusizlik mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar matnlari to’plami. – T.: Moliya instituti, 2012.